



## O'ZBEKISTON VA BOSHQA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA XALQARO MOLIVAVIY HISOBOTLARNI (IFRS) TRANSMILLIY MIQYOSDA QABUL QILISH VA TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI DASTLABKI MUAMMOLAR

**Sharapova Shoxsanam**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0009-8545-3140

[shoxsanam2305@gmail.com](mailto:shoxsanam2305@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ni transmilliy miqyosda qabul qilish va transformatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan dastlabki muammolar tahlil qilinadi. IFRSga o'tish jarayoni global iqtisodiy integratsiya va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda bu jarayon bir qator institutsional, iqtisodiy va professional to'siqlarga duch keladi. Jumladan, milliy buxgalteriya standartlari bilan IFRS o'rtasidagi tafovutlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi, yuqori implementatsiya xarajatlari hamda qonunchilik va metodologik bazaning yetarli darajada moslashmaganligi asosiy muammolar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, transformatsiya jarayonida axborot tizimlarining moslashuvi va amaliy tajriba yetishmasligi ham muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Maqolada ushbu muammolarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ham qisqacha yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** IFRS, transformatsiya, rivojlanayotgan davlatlar, moliyaviy hisobot, BHMS, xalqaro standartlar, buxgalteriya islohoti.

## ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИНЯТИЯ И ТРАНСФОРМАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ (IFRS) В УЗБЕКИСТАНЕ И ДРУГИХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ НА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ

**Шарапова Шохсанам**

Ташкентский международный университет Кимё

**Аннотация.** В данной статье анализируются первоначальные проблемы, возникающие в процессе принятия и трансформации Международных стандартов финансовой отчётности (IFRS) в Узбекистане и других развивающихся странах на транснациональном уровне. Несмотря на то что переход на IFRS имеет важное значение для обеспечения глобальной экономической интеграции и финансовой прозрачности, в развивающихся экономиках данный процесс сталкивается с рядом институциональных, экономических и профессиональных препятствий. В частности, в качестве основных проблем рассматриваются различия между национальными стандартами бухгалтерского учёта и IFRS, нехватка квалифицированных специалистов, высокие затраты на внедрение, а также недостаточная адаптация законодательной и методологической базы. Кроме того, важными факторами являются адаптация информационных систем и недостаток практического опыта в процессе трансформации. В статье также кратко освещаются рекомендации по снижению влияния указанных проблем.

**Ключевые слова:** IFRS, трансформация, развивающиеся страны, финансовая отчётность, национальные стандарты бухгалтерского учёта, международные стандарты, реформа бухгалтерского учёта.

## INITIAL CHALLENGES IN THE ADOPTION AND TRANSFORMATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS) AT THE TRANSNATIONAL LEVEL IN UZBEKISTAN AND OTHER DEVELOPING COUNTRIES

**Sharapova Shoxsanam**

Kimyo International University in Tashkent

**Abstract.** This article analyzes the initial challenges in the adoption and transformation of International Financial Reporting Standards (IFRS) at a transnational level in Uzbekistan and other developing countries. Although the implementation of IFRS plays an important role in ensuring global economic integration and financial transparency, developing economies face several institutional, economic, and professional barriers. The main issues include differences between national accounting standards and IFRS, shortage of qualified professionals, high implementation costs, and insufficient adaptation of legal and methodological frameworks. In addition, the lack of practical experience and adjustment of information systems are also identified as key challenges. The article briefly provides recommendations to mitigate these problems.

**Keywords:** IFRS, transformation, developing countries, financial reporting, national accounting standards (BHMS), international standards, accounting reform.

### Kirish.

Dastlabki buxgalteriya me'yorlari milliy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo'lsa-da, keyinchalik global iqtisodiyot rivojlanishi bilan birga xalqaro standartlar tizimi vujudga keldi. 2015-yildan dunyo miqiyosida qabul qilingan buxgalteriya hisobi standartlarining yagona to'plami qo'llab quvvatlanishi O'zbekistonning rivojlanish maqsadida boshqa davlatlar bilan intigratsiya qilishi, xalqaro munosobatlarni yaxshilashi. Savdo aloqalarni yaxshilash, rivojlangan mamlakatlardan investorlarni jalb qilish yoki investorlik qilish uchun moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tushunishda umumiy standart ya'ni soda qilib aytganda yagona "moliyaviy til" zarur edi. Mana shu yagona "Moliyaviy til" –Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (IFRS) bo'ldi.

### Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish masalasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, IASB tomonidan ishlab chiqilgan IFRS standartlari global moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanishini ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir (IASB, 2023). Ushbu standartlar investorlarga to'g'ri va ishonchli ma'lumot taqdim etish orqali moliyaviy bozorlarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga moslashish kompaniyalar uchun yangi talablar va mas'uliyatlarni ham yuzaga keltiradi.

Rivojlanayotgan davlatlarda IFRSni joriy etish jarayonini tadqiq qilgan olimlardan biri A. S. Zori bo'lib, u Afrika davlatlarida standartlarni qo'llashdagi asosiy muammolar sifatida malakali kadrlar yetishmasligi, institutsional zaiflik va normativ-huquqiy bazaning rivojlanmaganligini ko'rsatadi (Zori, 2015). Muallif, shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, IFRSni samarali joriy etish uchun ta'lim tizimi va professional tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega.

IFRS Foundation tomonidan taqdim etilgan rasmiy manbalarda ushbu standartlarning jahon miqiyosida yagona moliyaviy hisobot tizimini yaratishdagi roli alohida ta'kidlangan (IFRS

Foundation, 2023). Ushbu tizim kompaniyalar o'rtasida moliyaviy natijalarni taqqoslash imkonini beradi. Natijada, xalqaro investorlar uchun qaror qabul qilish jarayoni ancha osonlashadi.

Xitoy tajribasini o'rgangan tadqiqotlarda IFRSni milliy standartlarga moslashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va davlatning faol roli muhim ahamiyat kasb etgani qayd etilgan (China IFRS Study, 2017). Bu jarayonda milliy manfaatlarni saqlab qolish bilan birga xalqaro talablarga moslashish ustuvor vazifa bo'lgan. Shu sababli, Xitoy modeli ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun o'rnak sifatida qaraladi.

Qozog'iston tajribasiga oid ilmiy ishlarda IFRSni joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengaygani ta'kidlangan (Kazakhstan Analysis, 2018). Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun ushbu standartlarni qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelgani aniqlangan. Bu esa IFRSni joriy etishda differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Rossiyada esa IFRSni qo'llash ikki tizimli muhitda amalga oshirilayotgani sababli transformatsiya jarayoni murakkablashgani va qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqargani aniqlangan (Russia IFRS Study, 2019). Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar hisob yuritishni qiyinlashtiradi. Natijada, kompaniyalar uchun hisob siyosatini uyg'unlashtirish muammosi yuzaga keladi.

Ball tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda IFRSning investorlar uchun afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, uning axborot sifati va shaffoflikni oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan (Ball, 2006). Muallif IFRSni joriy etish kapital bozorlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Biroq, ayrim hollarda standartlarning murakkabligi ularni qo'llashni qiyinlashtirishi mumkin.

Daske va boshqalar IFRSni qabul qilish iqtisodiy natijalarga turlicha ta'sir qilishini va bu mamlakatning institutsional rivojlanish darajasiga bog'liqligini aniqlagan (Daske et al., 2008). Ularning tadqiqotlari IFRSni joriy etishdan maksimal foyda olish uchun kuchli iqtisodiy muhit zarurligini ko'rsatadi. Aks holda, kutilgan natijalarga erishish qiyinlashadi.

Zeghal va Mhedhbi rivojlanayotgan davlatlarda IFRSni qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, iqtisodiy ochiqlik va ta'lim darajasi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi (Zeghal & Mhedhbi, 2006). Shuningdek, ular davlat siyosati va xalqaro integratsiya darajasi ham muhim ekanligini qayd etadi. Bu omillar IFRSni muvaffaqiyatli joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida esa IFRSga o'tish jarayoni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bo'lib, normativ-huquqiy baza shakllanayotganiga qaramay, amaliyotda kadrlar va texnik infratuzilma bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2021). Shu bilan birga, mamlakatda IFRS bo'yicha malaka oshirish kurslari va o'quv dasturlari kengayib bormoqda. Bu esa kelajakda ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot ishida O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga (IFRS) moslashtirish va fond bozorini rivojlantirish masalalarini kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'unligidan foydalaniladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ammo har qanday me'yorlarni to'liq bir davlatga moslashtirishda ko'plab muommolar yuzaga keladi. Quyidagi muommolar shular jumlasidandir:

-Majburiy yoki ixtiyoriy?

IFRS ni qabul qilish ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy ixtiyoriy bo'lsa-da xalqaro tashkilotlar va global tendensiyalar ta'siri ostida qaror amalda majburiy tus oladi. Rivojlangan davlatlar uchun bu juda foydali. Tizim tayyor, kadrlar yetarli, audit va nazorat

kuchli. Ammo O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun IFRS ni majburiy qo'llash iqtisodiy muommolarga olib kelishi mumkin. IFRS faqat qog'ozlarda mavjud bo'lib qoladi amalda esa xorijiy investitsiyalarga milliycha qarash yuzaga keladi. Daromadlar xarajatlarga nisbatan oshirib ko'rsatiladi real mazmun va tabiiy raqobat yo'qoladi. IFRS professional mulohaza qilishni talab qiladi prinsiplarga asoslangan, tavsiyaviy xususiyatga ega. Milliy standartlarimizda bunday xususiyatlar yo'q. shu bilan birga soliq hisobi milliy standartlar asosida yuritiladi, moliyaviy hisobot esa –IFRS orqali. Natijada ikki xil hisob yuritish yuzaga keladi. Vaqt va chalkashlik ortib ketadi.

Ko'pchilik majburiylikni tanqid qiladi, ammo ixtiyoriy IFRS ham muommosiz emas. Uzoq vaqt ixtiyoriy ravishda ham ushlab turish muvozanatni yo'qotadi, yagona tizim yo'qoladi, taqqoslash qiyin bo'lib qoladi. Kichik va o'rta biznes o'tmaydi, tizim noto'g'ri rivojlanadi. Kompaniyalar faqat o'ziga foydali standartlar tanlaydi.

Muommoning yechimi sifatida shuni tavsiya qilish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda IFRS avval ixtiyoriy joriy qilinishi kerak. Korxonlarni IFRS ga o'tishini qo'llab quvvatlash uchun soliq yukini yengillshtirish yoki rag'batlantiruvchi tizim ishlab chiqish zarurki, toki korxonlar o'zlari IFRS ga o'tishni samarasini to'liq tushunib to'g'ri raqobat yuzaga kelgunicha taqqoslama tizim orqali milliy standartlar va IFRS ga o'tish farqlarini muntazam tekshirib borsin.

Bundan tashqari tashqi investorlar uchun ham dastlabki investitsiya berilgan yengilliklar, qo'shimcha xizmatlar yoki rag'batlantirish xususiyatiga ega qo'shimcha imkoniyatlar ko'plab investorlarni jalb qilishga va hisobotni ishonchliligini isbotlashga yordam beradi.

O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi, 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)", "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)" va "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)" sertifikatlaridan (keyingi o'rinlarda — xalqaro buxgalter sertifikat) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlashi, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, ushbu bandeda ko'rsatilmagan davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1-iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020) belgilangan edi. Keyinchalik yuqoridagi muommolarning yuzaga kelishini oldini olish uchun qarorga o'zgartirish kiritildi va 2021-yi 23-avgustdan boshlab bu majburiy band bekor qilindi.

-Dasturiy ta'minot muommosi (1C va transformatsiya)

Ko'plab korxonalarda qo'llanilayotgan 1C dasturi milliy buxgalteriya standartlariga moslashtirilgan bo'lib, IFRS talablarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli kompaniyalar moliyaviy ma'lumotlarni transformatsiya qilishga majbur bo'ladi. Ushbu jarayon ko'pincha qo'lda yoki Exel dasturlari orqali amalga oshiriladi, bu esa qo'shimcha vaqt va xarajat talab qiladi hamda xatoliklar xavfini oshiradi. Natijada IFRS hisobotlari ko'pincha formal xarakter kasb etib, ularning sifat va ishonchliligiga ta'sir qiladi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda IFRS katta darajada avtomatlashtirilgan. Lekin bu ham 100 % emas daraja mamlakatga qarab farq qiladi. Masalan:

Yevropa davlatlari Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiyada SAP, Oracle, Microsoft Dynamics kabi tizimlar IFRSni avtomatik va real vaqt hisoblab beradi, konsolidatsiya

hisobotlarini Avtomat tuzib beradi. Xatolar kam, tezlik yuqori, investorlar uchun ishonchli (IFRS, n.d).

Australiyada esa IFRS majburiy va ERP tizimidan keng foydalaniladi. Hisobotlar to'liq avtomatlashtirilgan.

AQSH da asosan US GAAP bo'lishiga qaramay tizim IFRS ni ham qo'llaganligi uchun juda kuchli IT tuzilma.

Yaponiya IFRS ixtiyoriy ammo faqat yirik kompaniyalar avtomatlashtirilgan.

Xitoyda esa "convergence" (yaqinlashtirilgan) modeli. Bunda ham asosan katta tashkilotlar foydalanadi (IFRS, n.d).

Qozog'istonda qisman avtomatlashtirilgan lekin ko'p joylarda transformatsiya bor (IFRS, n.d).

O'zbekistonda asosan 1C, exel transformatsiya. Bu IFRS ga moslashishning daslabki bosqichi albatta, ammo bu yo'l bilan investorlarni jalb qilish qiyin. Hisobot qo'lda qilingani uchun xatoliklar ko'p, aktivlarni real vaqtda sof sotish qiymatini aniqlash uchun hali bozorlar zaif hamda transformatsiya qilish faqat yil oxirida amalga oshiriladi. Transformatsiya risklarni hisobga ololmaydi. IFRS esa yil davomidagi bir oy yoki chorak oraliq davrlarni ham hisobga oladi. Transformatsiyada oraliq hisobotlarda farq beradi. Natijada Investorlar hisobotni ishonchligini past baholaydi. Muommoni bartaraf qilishda quyidagi ketma ketlikda harakat qilish zarur:

1. Fond bozorini rivojlantirish (Bozor bo'lmasa standartlar ishlaymaydi)

Buning uchun: -davlat korxonalarini xususiylashtirish (IPO)

-yirik kompaniyalarni listingga majburlash va/yoki rag'batlantirish:

-aholi uchun investitsiya madaniyatini yaratish:

-pension fondlar, investitsion fondlarni rivojlantirish:

-xorijiy investorlarni jalb qilish:

-minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish:

-insider tredingga qarshi qat'iy qonun:

-dividendga soliq yukini kamaytirish;

-kapital daromadga imtiyoz;

-zamonaviy trading platformalar bilan online savdoni rivojlantirish;

-Kuchli reklama, trening va medialar orqali odamlar ongini zabt etish;

-professional ishtirokchilar tayyorlash (brokerlar, aktivlarni boshqarish kompaniyalar, reyting agentliklar)

Bulardan esa kuchli bozor zanjiri yuzaga keladi

Kompaniya+investor+ishonch+qonun=rivojlangan fond bozori

2. Ixtiyoriy o'tishni qo'llab quvvatlash. Har bir korxonaga o'z holatiga qarab o'tadi. Puli va kadrlari bor, xorijiy investor kerak va raqobatbardosh o'tishga tayyor korxonalar asta sekinlik bilan jarayonni tushungan holatda o'tadi. Stresslar kamayib sifat oshadi. Davlat tomonidan esa soliq imtiyozlari, metodik yordam, va treninglar orqali ushbu jarayonni rag'batlantirish muhimdir.

3. Qati'y qonunlar ishlab chiqish. Yuqoridagi ikkita muommoni bartaraf etgandan so'ng, sekin asta qat'iy qonun va qoidalar ishlab chiqish zarur.

- Avvalo, qonunchilik darajasida qaysi toifadagi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun IFRS majburiy ekanini belgilash lozim. Xususan, jamoat ahamiyatiga ega korxonalar, banklar, sug'urta tashkilotlari va fond bozorida ishtirok etuvchi kompaniyalar uchun IFRS asosida moliyaviy hisobot tuzish majburiy etib belgilanishi kerak. Bu moliyaviy axborotning shaffofligi va solishtiruvchanligini ta'minlaydi.

- Moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirish maqsadida majburiy tashqi audit tizimini IFRS ga mos tuzib chiqish va kuchaytirish lozim.

- Qonunchilikda moliyaviy axborotni oshkor etish talablari aniq belgilanishi kerak. Korxonalar o'z moliyaviy holati, risklari va faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va shaffof

ma'lumot taqdim etish majburiy bo'lishi zarur. Bu investorlar uchun muhim qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

- IFRS ni buzganlik yoki noto'g'ri qo'llagani uchun javobgarlik choralarini belgilash ham muhim hisoblanadi. Misol uchun moliyaviy jarimalar, ma'muriy choralar va ayrim hollarda jinoiy javobgarlik belgilanishi korxonalarini standartlarga rioya qilishga majbur etadi.

- Shu bilan birga, insider tredingga qarshi qat'iy qonunlar, minoritar aksiyador huquqlarini himoya qilish va korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish orqali umumiy institutsional muhitni yaxshilash zarur.

4. Boshqa hisobotlarni IFRS ga moslashtirish. Korxonada soliq hisobi, boshqaruv hisobi va statistic hisoblar ham IFRS tamoyillariga moslashtirish kerak. Aks holda, bir vaqtning o'zida bir nechta turli tizimda hisob yuritish zarurati yuzaga keladi, bu esa ortiqcha xarajat va xatoliklarga olib keladi.

5. 1C IFRS ga moslash yoki boshqa platforma ishlab chiqish. 1C ni IFRS ga moslashtirishda avvalo milliy standartni qo'shimcha ravishda bazani o'ziga qo'llash lozim shunda, korxonalar milliy standart bilan farqlarini ko'rib solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu IFRS ni osonroq tushunishga yordam beradi. 1C ni Fond bozori bilan to'g'ridan to'g'ri integratsiya qilishini ta'minlash esa hisobotlarni yanada ishonchli qiladi. Keyinchalik esa 1C to'liq IFRS tizimida mukammalshtiriladi va milliy baza shu orqali muomaladan chiqadi.

6. Majburiy o'tishni ta'minlash. Yuqoridagi shart sharoitlar yaratilgandan so'ng IFRS ni to'liq majburiy joriy etishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

-Mutaxassislarning yetishmasligi. Hozirda O'zbekistonda bunday muommolar hal qilingan. O'zbekiston Respublikasi (2021) MHXS bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari tarkibi va ushbu xarajatlar qoplab beriluvchi shaxslar toifasini balgilanishi ko'plab mutaxassislarni yetishib chiqishiga motivatsiya bo'ldi va hozirda oliy ta'lim sohalarida alohida fan sifatida o'qitiladi.

-Qonunchilikdagi muommolar. BHMS (milliy standartlar) va IFRS o'rtasida to'liq moslik yo'q. Ba'zi normalar bir-biriga zid yoki turlicha talqin qilinadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bazi majburlovchi qonunlarni ham IFRS standartlariga moslashimiz kerak.

-Xarajatlarning yuqoriligi

IFRS qo'llashda yuqoridagi muommolarni hal qilish albatta ancha qimmat jarayon hisoblanadi. Ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun IFRSga o'tish uchun qilingan harakati u keltiradigan daromaddan yuqori bo'ladi. Nafaqat korxonalar bu rivojlanayotgan davlatlarning o'zi uchun ham juda katta xarajat hisoblanadi:

- Mutaxassis tayyorlash (davlat hisobidan)
- Normativ bazani yangilash
- IT tizimlarini moderinizatsiya qilish
- Audit va nazorat tizimi
- O'tish davrida samaradorlikni yo'qotilishi va hokozo.

Ammo muhim jihati shundaki davlat buni investitsiya sifatida qaraydi. Kelajakda O'zbekiston va shu kabi rivojlanayotgan davlatlar global moliya bozoriga chiqishi oshadi. Katta xarajat, murakkab jarayon –iqtisodiy katta foyda.

### Xulosa va takliflar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital bozorlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi IFRSni qo'llash natijasida investitsiya jozibadorligi ortishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, IFRSni joriy etish jarayoni murakkab bo'lib, u har bir mamlakatda mavjud institutsional muhit, qonunchilik bazasi va kadrlar salohiyatiga bog'liq holda turlicha

kechadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda malakali mutaxassislar yetishmasligi, amaliy qo'llashdagi qiyinchiliklar va tizimli muammolar asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, IFRSni samarali joriy etish uchun kompleks yondashuv, ya'ni kuchli huquqiy baza, professional kadrlar tayyorlash, moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:**

Ball, R. (2006) 'International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors', Accounting and Business Research.

China IFRS Study (2017) IFRS adoption and convergence in China.

Daske, H., Hail, L., Leuz, C. and Verdi, R. (2008) 'Adopting a label: Heterogeneity in the economic consequences of IFRS adoption', Journal of Accounting Research.

IFRS Foundation (2023) International Financial Reporting Standards – Official documentation. Available at: <https://www.ifrs.org>

IASB (2023) International Financial Reporting Standards (IFRS). London: IFRS Foundation.

Kazakhstan Analysis (2018) IFRS adoption in Kazakhstan: Comparative analysis.

Russia IFRS Study (2019) IFRS implementation in Russia: Dual institutional environment.

Zori, A.S. (2015) Adoption of International Financial Reporting Standards in developing countries.

Zeghal, D. and Mhedhbi, K. (2006) 'An analysis of the factors affecting the adoption of international accounting standards by developing countries', The International Journal of Accounting.

O'zbekiston Respublikasi (2016) "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir).

O'zbekiston Respublikasi (2016) ORQ-404-son normativ hujjat: "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun bilan bog'liq o'zgartirishlar, 13 aprel.

O'zbekiston Respublikasi (2021) ORQ-677-son normativ hujjat: Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, 25 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) PQ-4611-son Qaror: Moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida, 24 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) PQ-282-son Qaror: Moliyaviy hisobot va audit tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari, 15 sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2020) 507-son Qaror: Buxgalteriya hisobi va hisobotini rivojlantirish choralari to'g'risida, 24 avgust.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021) 38-son Qaror: Moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirish bo'yicha qaror, 26 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2024) 3530-son Qaror: Moliyaviy hisobot tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qaror, 12 iyul.